



## MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHLTLARI

**Alimdjanov Farruh Sunnatovich**  
“Tashkent international University”  
Xalqaro universiteti bosh buxgalteri

**ANNOTATSIYA.** *Mazkur maqolada moliya tizimida davlat nazoratini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Jumladan, nazorat mexanizmlarining huquqiy asoslari, mavjud muammolar, xorijiy tajribalar hamda O‘zbekistonda bu sohani rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar bayon etiladi. Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash masalalari ilmiy asosda yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *davlat moliyaviy nazorati, moliya tizimi, nazorat mexanizmi, huquqiy asoslar, shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik.*


**АННОТАЦИЯ.** *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования государственного финансового контроля в системе финансов. Особое внимание уделено нормативно-правовой базе, существующим проблемам, международному опыту, а также предложениям по улучшению финансового контроля в Узбекистане. Также раскрыты вопросы повышения эффективности контроля, обеспечения прозрачности и подотчетности.*

**Ключевые слова:** *государственный финансовый контроль, финансовая система, контрольные механизмы, правовая база, прозрачность, подотчетность, эффективность.*

**ABSTRACT.** *This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving state financial control in the financial system. It discusses the legal framework, existing challenges, international experience, and offers recommendations for enhancing financial oversight in Uzbekistan. The paper also addresses the importance of increasing the effectiveness of control mechanisms and ensuring financial transparency and accountability.*

**Keywords:** *state financial control, financial system, control mechanism, legal framework, transparency, accountability, efficiency.*

Moliya resurslarining oqilona va maqsadli yo‘naltirilishini kafolatlash, byudjet mablag‘laridan foydalanishda qonuniylik va shaffoflikni ta’minlash zamonaviy davlat moliyasini boshqarishning ustuvor yo‘nalishlaridandir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, budjet xarajatlarining oshishi, davlat dasturlarining moliyalashtirilishi sharoitida davlat moliyaviy nazoratining roli va ahamiyati yanada ortmoqda.



Shu nuqtai nazardan, davlat moliyaviy nazorati institutini takomillashtirish, u orqali moliyaviy intizomni kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy nazoratni institutsional rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik sezilarli darajada oshadi.

Zamonaviy adabiyotlarda esa moliyaviy nazoratning institutsional va tizimli asoslari batafsil yoritilgan. Xususan, R. Musgrave (1989) va P. Samuelson (2010) kabi iqtisodchilar davlat moliyasining samarali boshqaruvi uchun fiskal intizom, shaffoflik va hisobotlilik mexanizmlarining ahamiyatiga urg'u beradilar. Ularning fikricha, moliyaviy nazorat faqatgina moliyaviy buzilishlarning oldini olish emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham xizmat qilishi lozim.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.X. Abdullayev (2019), Z.T. Xasanova (2020), R.N. Yusupov (2021) va boshqa iqtisodchi olimlar moliyaviy boshqaruvda davlat roli, fiskal siyosat samaradorligi va nazorat mexanizmlarining rivojlanishi bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ilgari surganlar. Ularning ishlarida nazoratning huquqiy asosi, byudjet jarayonidagi ishtiroki hamda audit tizimining o'rni chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, xalqaro tajribada, masalan, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda moliyaviy nazorat organlari — hisob palatalari, davlat auditi idoralari va fiskal kengashlar — faoliyati yuqori texnologiyalar asosida tashkil etilgan. Bu tajribalar ko'plab akademik maqolalarda, xususan IMF, OECD va World Bank tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda o'z aksini topgan.

Shu tarzda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv, nazariy asoslash va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat byudjeti ijrosini tashkil etish masalasiga har doimgidan ham ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Chunki har qanday davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajara olishi uchun zarur moddiy-moliyaviy shart-sharoitni ta'minlashi zarur. Davlat o'z funksiyalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlarni amalga oshiradi. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratiladi va ular davlat byudjeti orqali shakllantiriladi.

Davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati – bu jamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan hamda sarflangan moliyaviy resurslarni anglatadi. Shu ma'noda, bugungi kunda davlat byudjetining aholi turmush darajasi va uning yaxshilanishiga bo'lgan ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, byudjet ijrosi tezligini oshirish, mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash nafaqat davlatning o'z vazifalarini samarali bajarishining muhim omili, balki xalqning davlatga va uning olib borayotgan siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlovchi mexanizmdir. Shu sababli ham, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq byudjet-soliq siyosatini

optimallashtirish va uni amalga oshirish hamda nazorat qilish tizimini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda dunyoning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi davlat byudjetining shakllanishini va undan foydalanish jarayonini isloh qilish masalasi o'z dolzarbligini oshirib bormoqda. Chunki davlat byudjetini shakllantirishni asosiy maqsadi davlatning vazifa va majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashga moliyaviy asosni yaratishdir. Bu esa o'z navbatida byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonining nechog'li nazorat qilinishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda Davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyati keng qamrovli xarakterga ega bo'lib, barcha byudjet jarayoni ishtirokchilarini deyarli to'liq qamrab olgan. Uning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligini oshirish loyihasi talablariga, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi vazifa hamda funksiyalariga asoslangan holda shakllantirilgan. Davlat moliyaviy nazorati tizimi, asosan, byudjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratni ta'minlash jarayonida, Davlat moliyaviy nazorati tizimi organlari nazoratning turli shakllaridan foydalanadi.

Hozirgi kun talabi mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimida moliyaviy nazoratni ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri sifatida davlat moliyaviy nazorat tizimini unifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Bu o'z navbatida, Davlat moliyaviy nazorati faoliyatida qator takomillashtirishlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Bu ishlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

1. Me'yoriy huquqiy hujjatlarni takomillashtirish.
2. Xodimlar malakasini shakllantirish va oshirishni ta'minlash.
3. Axborot dasturlari ta'minotini takomillashtirish.

Xar qanday tizimni ishlashi yuqoridagi ko'rsatkichlarning mavjudligini taqozo etadi. Shunday ekan ularning biri boshqasi bilan bog'liq. Ularning har birida kuzatilayotgan muammolarga qisqacha to'xtalamiz.

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi muammolar. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati tizimini tartibga soluvchi ya'ni davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar juda ko'p va ularda takrorlanishlar mavjud. Bu esa bir vazifani bir nechta organ qayta-qayta bajarishiga to'g'ri kelishini bildiradi.

2. Xodimlar malakasini shakllantirish va oshirishni taqozo etuvchi muammolar. Davlat moliyaviy nazorati faoliyati jamiyatning juda ko'plab tarmoqlarini qamrab olishi jixatidan o'z murakkabligiga ega va hech bir xodim davlat moliyaviy nazoratida to'g'ridan-to'g'ri faoliyat yuritish malakasiga avval boshdanoq ega bo'la olmaydi. Shuning uchun ham bugungi kundagi davlat moliyaviy nazorati faoliyatidagi muammolarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar bera oladigan xodimlar sinfini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Axborot dasturlari ta'minotidagi muammolar. Bu muammolar bugungi kunda eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Chunki, Davlat moliyaviy nazorati faoliyatini informatsion texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Bu jarayonda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan moliyaviy nazorat yo'llarini dasturiy ta'minotini takomillashtirish katta samara berishi mumkin.

Yuqoridagi muammolarni taxlil qilish barobarida quyidagi ishlarni amalga oshirish katta samara berishiga ishonamiz:

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi muammolarni bartaraf etish uchun davlat moliyaviy nazorati uslubiyotini isloh qilish va bunda asosiy e'tiborni barcha tegishli organlarning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini bir tizimga solish ya'ni unifikatsiyalash lozim. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda tizim xodimlaridan ayniqsa respublikaning barcha hududlaridagi xodimlarni ishtirokini ta'minlash.

2. Xodimlar malakasini shakllantirish va oshirishni taqozo etuvchi muammolarni bartaraf etish uchun davlat moliyaviy nazorati natijalari ya'ni aniqlangan xolatlar bo'yicha xatoliklar klassifikatorini ishlab chiqish va buni hodimlarga tanishtirish lozim.

Bundan tashqari, davlat moliyaviy nazorat faoliyatini o'zida aks ettiruvchi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish katta samara berishi mumkin. Shuningdek, xodimlar malaka va bilim darajasini baxolashni yangi mezonlarini ishlab chiqish va unda xodimlar bilim darajasini ularning lavozimlari va maoshlariga bog'lash.

3. Axborot dasturlari ta'minotidagi muammolarni bartaraf etish uchun dasturchilar va uslubiyotchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda dasturiy ta'minotni yaratilishini moliyalashtirishni takomillashtirish.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ularda davlat moliyaviy nazorati deganda to'liq axborotlashtirilgan, ya'ni avtomatlashtirilgan byudjet jarayonining deyarli barcha bosqichlarini qamrab oladigan yaxlit bir tizim nazarda tutiladi. Bunday tajribani Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada kabi rivojlangan davlatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu davlatlarda moliyaviy nazoratning barcha usullari byudjet ijrosining har bir bosqichida dasturiy majmua yoki avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, nazoratning tezkor, sifatli va asosli bo'lishini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni hali ular ro'y bermasidan oldin aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Xodimlar masalasida ham xorij tajribasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, davlat moliyaviy nazorat tizimida faoliyat yuritadigan xodimlarga qat'iy malaka talablari belgilanadi. Bu talablar, asosan, byudjet jarayonlarida amaliy ish tajribasiga ega bo'lish, tegishli sohada ma'lumotga ega bo'lish, shuningdek, moliyaviy tahlil va nazorat bo'yicha malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganlik bilan izohlanadi.

Masalan, Germaniyada Federal Hisob palatasi (Bundesrechnungshof) auditorlari kamida 3-5 yillik davlat moliyasi yoki iqtisodiyot yo'nalishida tajribaga ega bo'lishi talab

etiladi. AQShda esa Government Accountability Office (GAO) xodimlaridan CPA (Certified Public Accountant) yoki CGFM (Certified Government Financial Manager) sertifikatlariga ega bo'lish so'raladi.

Bundan tashqari, xodimlarni tanlash va tayyorlashda maxsus tartiblar ishlab chiqilgan bo'lib, bu tartiblar yirik nazorat institutlari tomonidan ishlab chiqilgan model tizimlarda o'z aksini topgan. Ular orqali mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlar, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy risklarni baholash va avtomatlashtirilgan nazorat vositalarini qo'llash bo'yicha ham malaka oshiradilar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, avtomatlashtirilgan va shaffof moliyaviy nazorat tizimi — samarali boshqaruvning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston ham bu borada sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Moliyaviy nazorat tizimini to'liq raqamlashtirish – barcha byudjet jarayonlarini yagona elektron platformaga o'tkazish orqali samaradorlikni oshirish;
2. Nazorat organlari xodimlari uchun doimiy o'quv-trening dasturlarini yo'lga qo'yish – malakani oshirish va zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish uchun;
3. Xalqaro standartlarga mos huquqiy va moliyaviy bazani shakllantirish – xorijiy ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish;
4. Fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish – ochiqlik va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash maqsadida.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish davlat moliyaviy nazorat tizimini yanada samarali va zamonaviy darajaga olib chiqishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хасанов З.Т. (2020). “Молия тизимida davlat nazoratining samaradorligini oshirish yo'llari”, *Iqtisodiyot va ta'lim* jurnali, №4.
2. Абдуллаев А.Х. (2019). “Davlat moliyasini boshqarishda fiskal nazoratning o'rni”, *Ilmiy-amaliy moliyachi* jurnali, №3.
3. G'ofurov, T., & Baxtiyorova, Z. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya bozorining transformatsiyasi. “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali, №1, 33–40-betlar.